

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 216-222 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI



Jumayev Eldor Bahodirovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Samarqand filiali Bank ishi va auditi ta'lim yo'nalishi,
3-kurs talabasi;

eldorjumayev193@gmail.com

Xujamurotov Shoxzod Shaxobiddin o'g'li
TDIU SF BI-122-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Togayev Salim Sobirovich**
"Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

Annotatsiya: Bugungi kunda yurtimizdagi kuzatilayotgan tijorat banklarining xalqaro moliya tizimiga integratsiyasi bo'yicha say-harakatlar, ayniqsa, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida kuchli bank biznesi, bankning moliyaviy barqarorligi, uning likvidliligi va to'lovga layoqatliligiga ulkan e'tibor berilayotgan davrda, ayrim mamlakatlarda inqirozga qarshi choralarning susaytirilganligi, ko'pgina banklar o'zining kontragentlari oldidagi moliyaviy va qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlashda moliyaviy ahvoli zaif bo'lganligi sababli ko'pincha ularda nolikvidlilik holatlari yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar evolyusiyasini o'rganish va tahlil qilish zaruriyatini taqozo etadi. Bank likvidligiga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, likvidlilik, to'lovga qobillik, naqd pullar, oltin tangalar, banknotalar, omonatchilar, depozitlar, bank aktivlari, bank majburiyati.

Аннотация: Усилия по интеграции коммерческих банков в международную финансовую систему наблюдаются сегодня, особенно в период активного банковского бизнеса, финансовой устойчивости банка, его ликвидности и платежеспособности в условиях мирового финансового кризиса, антикризисных мер в ряде стран в связи с ослаблением, многие банки имеют слабое финансовое положение в обеспечении своевременного и полного выполнения своих финансовых и долговых обязательств перед контрагентами, нередко в них возникают случаи неликвидности. Это, в свою очередь, требует необходимости изучения и анализа эволюции научно-теоретических взглядов на обеспечение ликвидности коммерческих банков. Банковская ликвидность определяется по-разному в различной литературе.

Ключевые слова: Коммерческие банки, ликвидность, платежеспособность, денежные средства, золотые монеты, банкноты, вкладчики, вклады, активы банка, обязательства банка.

Abstract: Efforts to integrate commercial banks into the international financial system observed today, especially in the period of strong banking business, financial stability of the bank, its liquidity and solvency in the context of the global financial crisis, anti-crisis measures in some countries due to weakening, many banks have a weak financial position in ensuring timely and full fulfillment of their financial and debt obligations to their counterparties, often there are cases of illiquidity in them. This, in turn, requires the need to study and analyze the evolution of scientific and theoretical views on ensuring the liquidity of commercial banks. Bank liquidity is defined differently in different literature.

Keywords: Commercial banks, liquidity, solvency, cash, gold coins, banknotes, depositors, deposits, bank assets, bank liability.

Kirish.

Ma'lumki, bank ishida likvidlilik bo'yicha ilmiy-nazariy fikrlarning rivojlanishi bank tizimining shakllanishi bilan birga paydo bo'lgan. Bankka nisbatan ishonch va vositachilik masalalari esa har doim ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli qarorida mamlakat bank tizimining likvidliligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar qo'yilgan. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar evolyusiyasini o'rganish va tahlil qilish zaruriyatini taqozo etadi. Bir necha yuz yillar avval kishilar o'zining oltinini "qarz tilxati"ga almashtirgan. Ular o'zlarining oltinining hisob-kitobini olishi uchun ularni sanoqdan o'tkazish majbur bo'lgan. Agar "qarz tilxati"ning egasi o'zining oltinini saqlaydigan joydan olishni xohlasa, saqlaydigan joyning ahvoli qanday holatda bo'lmasin, o'zining oltinini naqd shaklda olishni lozim ko'rgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda to'lovga qobillik likvidlilikka nisbatan ham keng, ham tor kategoriya sifatida ko'riladi. Keng kategoriya sifatida o'rganilganda to'lovga qobillik ichki va tashqi omillar doirasida ko'ribchiqiladi, likvidlilik esa, faqat ichki omillar doirasida qaraladi. Ba'zi qarashlarga ko'ra, likvidlilik bankning dinamik holatini belgilaydi, to'lovga qobillik esa, ma'lum bir sanaga belgilangan to'g'ri keluvchi holatni, ya'ni majburiyatlarini qoplay va to'lay olish qobiliyatini bildiradi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya.

Jahon bank amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish va tahlil qilish XIX asrning boshlariga kelib kurtak yozgan. "Likvidlilik" tushunchasi bankning biznesi sohasida tez-tez qo'llanilgan. "Bank likvidligi" o'zida bank aktivlarining naqd pul mablag'lariga aylanishi va oqib o'tish qobiliyatini aks ettiradi.

Tijorat banklarining to'lovga qobilligi va likvidliligini boshqarish bo'yicha nazariy qarashlar bir qator taniqli iqtisodchi olimlarning, shu jumladan, E. Dolan, J. Matuk, O. Lavrushin, K. Barltrop, D. MakNoton, D. Polfremanlarning ilmiy izlanishlarida va O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ta'riflarida o'z aksini topgan.

Olimlarning ism va familiyasi	Olimlarning nazariy qarashlari
Dj.M.Keyns	xo'jalik yurituvchi subyektlar naqd pullar shaklida olinadigan daromadning muayyan bir qismini saqlashni ma'qul, deb topgan. Keyns "naqd pullar" sifatida qo'ldagi oltin tangalar va banknotlarni, naqd pul ko'rinishdagi har qanday ko'rinishdagi mablag'larni, xususan, g'azna veksellarini, bank hisobvara-g'idagi qoldiq mablag'larni jalik xo'tizimidagi qonuniy to'lov vositasi deb qabul qilgan.
Dj. Sinki	bank likvidli bo'lishi uchun depozit egalari mablag'larni o'zlarining hisobvarag'idan olib qo'yilishiga va kreditlarga bo'lgan ehtiyojni doimo ta'minlashga tayyor bo'lib turishi lozim. ...Bank har qanday paytda shartnomaviy majburiyatlarni kelishilgan narxda ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim
J.Matuk	bankni likvidligini belgilangan muddatga va hajmga muvofiq o'zining qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyati
P.Diyeterlen	bankning likvidligini barcha joriy talablarga va majburiyatlarga zid keladigan, hozirgi paytda va kelgusida zarur bo'ladigan naqd pullarga muayyan muddatda ehtiyoj tug'iladi va o'z navbatida, doimiy yoki tasodifiy xarakterga ega bo'ladi. London universiteti proffesori R.Sayers "likvidlilik – bu banklarning omonatchilar mablag'larini ularning rasmiy talablariga ko'ra qaytarib berish paytidagi qobiliyati" deb hisoblaydi.
R.Sayers	likvidlilik – bu banklarning omonatchilar mablag'larini ularning rasmiy talablariga ko'ra qaytarib berish paytidagi qobiliyati
A.N.Trifonov	bank likvidliliigi tarkibiga bankning nafaqat qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyati, balki mijozlarning moliyaviy barqaror bo'lgan pul mablag'larini ta'minlash majburiyati ham kiradi
M.M.Yampolskiy	tijorat bankining faoliyatidagi asosiy sharti likvidlilikka rioya qilish, unga jalb qilingan mablag' egalarining ehtiyojini ta'minlash imkoniyati va o'z vaqtida majburiyatlarni hisob-kitob qilishidir
P.S.Rouz	jamiyatning o'zi jamg'arma sertifikatleri bilan muddatli depozitlari o'rtasidagi miqdoriy munosabatlarni o'zlari aniqlab bergan, ular pul mablag'larni saqlab turishini taqozo etishi lozim
O.I.Lavrushin	bank likvidligini omonatchilar, kreditorlar va boshqa mijozlar oldidagi o'zining majburiyatlarini o'z vaqtida va yo'qotishlarsiz bajarishdagi bankning qobiliyati
O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar	bank likvidligini o'z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan holda pul mablag'lariga tezda aylantirish yo'li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish qobiliyatidir

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga asoslangan holda, "Likvidlilik – bu bankning o'z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatishi yoki kontragentlar oldida o'zining moliyaviy mablag'lari va qarz majburiyatlarini minimal yo'qotishlar bilan o'z vaqtida va to'liq bajarilishin ta'minlash qobiliyati" deyish mumkin.

Bankning likvidlili va bankning to'lovga layoqatliligiga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan va ushbu atamalar bir-biriga juda o'xshash.

Likvidlilik bu (lotin tilidagi liquidite so'zidan olingan bo'lib-suyuq, oquvchan ma'nolarini bildiradi) korxonaga asosiy yoki aylanma kapitalini tez va oson sota olishi, bank likvidlili esa bankning naqd mablag'larga bo'lgan ehtiyoji bo'yicha o'zining majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq qoplay olishidir.

Bank likvidlili - bu bankning yuzaga kelgan majburiyatlarini qoplash maqsadida tezkor ravishda va minimal xarajatlar bilan o'z aktivlarini pulga aylantira olish qobiliyati hisoblanadi.

Bankning to'lovga layoqatliligi – bank kapitaliga zarar yetkazmagan holda barcha majburiyatlarni to'lay olish qobiliyatidir.

Umumiy holda bank likvidlili texnologik, ya'ni aktivlarning pulga aylanish tezligi jarayoni, qolaversa, bank balansining likvidligi hamdir.

Bank aktivlari likvidlilik darajasiga ko'ra uch asosiy guruhga bo'linadi:

1-darajali tezda pulga aylanadigan likvidli aktivlar:

- a) kassadagi va yo'ldagi naqd pullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;
- b) vakillik hisobvarag'idagi mablag' qoldiqlari;
- v) "Nostro" va "Vostro" schetlaridagi qoldiqlar;
- g) majburiy rezervlar scheti bo'yicha mablag'lar qoldig'i;
- d) qimmatli qog'ozlar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, O'RMB ning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari.

2-darajali pulga aylanishi mumkin bo'lgan likvidli aktivlar:

- a) berilgan kreditlar (jumladan, banklararo ham);
- b) o'z investitsiyalari;
- v) boshqa qimmatli qog'ozlar, muddati 30 kungacha bo'lgan debitorlar;

3-darajali nolikvid (past likvidli) aktivlar:

- a) muddati o'tgan ssudalar;
- b) muddati o'tgan foizlar;
- v) sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan ssudalar;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarish;
- d) asosiy vositalar kiradi.

Likvidlilik, to'lovga layoqatlilik va bankning barqarorligi orasidagi munosabat 1-chizmada aks etgan.

Aktiv			Passiv
Bank talablari			Bank majburiyatlari
↓			↓
Likvidlilik			To'lovga layoqatlilik
↓			↓
Bank talablarining muddatida bajarilishi			Majburiyatlarning muddatida bajarilishi
Bank barqarorligi			

1-chizma. Bank barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlari.¹

Bank likvidligini tasniflashning uning obektiga, manbasiga, xususiyatiga va to'lov mablag'larining turiga bog'liq.

Bank majburiyatlarining o'z vaqtida, to'liq bajarilishi va ularni yo'qotishlarsiz ta'minlashning zarurligi bank rahbarlaridan likvidlilikning o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilib borishni talab etadi. Bank rahbari tomonidan likvidlilikni samarali boshqarish uchun unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlab olishi zarur, chunki bu omillarni aniqlash bank rahbari uchun bank amaliyotida yuz beradigan negativ o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish va unga nisbatan ehtiyot chorasini ko'rish uchun imkoniyat yaratadi.

Tijorat banklari likvidligi tasnifini kengroq tarzda quyidagi rasm orqali keltirish mumkin (2-chizma):


Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish va likvidlilikni oshirish maqsadida kelgusi 5 yil ichida fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7milliard AQSH dollariga yetkazish, hamda mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish. Yirik korxonalar va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni) fond birjasi orqali xususiylashtirish.

Tijorat banklari likvidlili va raqobat bardoshligini oshirish, hamda davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish. Mamlakatimizda likvidlilikni oshirish bilan bir qatorda inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish. Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 % dan oshib ketmasligini ta'minlash.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bank-moliya tizimi moliyaviy-barqarorligini ta'minlash va uni yanada mustahkamlash, iqtisodiy taraqqiyotning muhim va hal qiluvchi omili deb e'tirof etish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistan Respublikasi bank tizimini 2017-2021 yillarda rivojlantirish xarakterli strategiyasida tijorat banklarining aktiv operatsiyalari hajmini, shu jumladan, kredit operatsiyalari hajmini oshirish bo'yicha aniq vazifalar qo'yilgan.

¹ Sattorov O.B Tijorat banklari likvidlili boshqarish. Monografiya. Toshkent-2010y.



2-chizma. Banklar likvidligini tasniflanishining asosiy belgilari.²

Xususan, respublikamiz tijorat banklari tomonidan beriladigan uzoq muddatli kreditlar xajmini 2021 yilga borib 2017 yilga nisbatan 2,8 marta oshirish mo'ljallangan. Bu darajadagi yuqori o'sish sur'atini ta'minlash uchun banklar yetarli darajada uzoq muddatli resurs bazasiga ega bo'lishlari lozim, bu esa, Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomalarini "yumshatish" zaruratini yuzaga keltiradi, deb hisoblaymiz. Shuni unutmashlik joizki, uzoq muddatli depozit hisob raqamlariga mablag'lar talab qilib olinadigan depozit hisob raqamlaridan olinadi. Respublikamiz tijorat banklarining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamlaridagi mablag'larga esa, nisbatan eng yuqori, ya'ni

15 % li majburiy zaxira stavkasi qo'llaniladi. Tijorat banklarining kreditlash hajmining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash, avvalo, ularni yetarli darajada likvidli bo'lishini taqozo etadi. Shu jihatdan olganda, majburiy zaxira stavkalarining pasaytirilishi banklarning likvidlilik darajasini oshirish nuqtai nazaridan muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston,2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni. – T.: 5 noyabr 2019 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni. – T.: 13 noyabr 2019 yil.
4. Mirziyoyev SH.M "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"
5. SH. Abdullayeva "Bank ishi" o'quv qo'llanma. T. 2017 y.
6. Toraev C. Bank ishi" fanidan uslubiy qo'llanma //Scienceweb academic papers collection.–2016. – 2016.
7. Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidligini boshqarish. MonografiY. Toshkent. 2010y. 41 bet
8. S.S. Togayev, E. Amirov "Osnovniye rekomendatsii vnedreniya mejdunarodnix standartov bazel III v mire i osobennosti vnedreniya ix v Uzbekistane" (International Scientific and Practical Conference "WORLD SCIENCE" (Innovative Technologies in Science (February 25 – 26, 2016, Dubai, UAE)
9. Omonov A.A. Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. - Toshkent, 2004. -21 b.
10. Sobirovich T. S. Topical issues of providing the financial stability of commercial banks //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.1 Economical sciences.
11. Internet saytlari:
www.cbu.uz
www.uba.uz
www.google.uz

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

